
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI

Bafayev Muxiddin Muxammadovich
Buxoro davlat pedagogika instituti
Psixologiya fanlari doktori, dotsent,

Annotatsiya. Ko‘pgina ilmiy manbalarda tolerantlik sabr-bardoshlilik, o‘zidan farq qiladigan insonlar bilan samarali muloqot o‘rnatish qobiliyati hamda umumqabul qilingan fikrga qo‘shilmaydigan shaxslarga nisbatan chidamlilik sifatida talqin qilinadi. Mazkur maqolada taniqli olima Galina Bardiyer tomonidan ishlab chiqilgan tolerantlikning uch komponentli kompleks modeli asosida tolerant va intolerant munosabatlarning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tolerantlikning affektiv, kognitiv va konativ komponentlari hamda ularning shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, stereotiplar, emotsional qabul qilish va ijtimoiy hamkorlikning tolerantlik shakllanishidagi o‘rni psixologik jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tolerantlik, stereotiplar, kognitiv, konativ, affektiv, uch komponentli model.

Annotation. In many scholarly sources, tolerance is interpreted as patience, the ability to establish communication with people who differ from oneself, and endurance toward individuals who do not share generally accepted opinions. This article describes the psychological mechanisms of tolerant and intolerant attitudes based on the three-component complex model of tolerance developed by the well-known scholar Galina Bardier. The study analyzes the affective, cognitive, and conative components of tolerance and their manifestations in interpersonal relationships. In addition, the role of stereotypes, emotional acceptance, and social interaction in the formation of tolerance is psychologically substantiated.

Keywords: tolerance, stereotypes, cognitive, conative, affective, three-component model.

Аннотация. Во многих научных источниках толерантность рассматривается как терпимость, способность устанавливать общение с людьми, отличающимися от себя, а также устойчивость по отношению к тем, кто не разделяет общепринятые взгляды. В данной статье описываются психологические механизмы толерантных и интолерантных отношений на основе трёхкомпонентной комплексной модели толерантности, разработанной известным учёным Галиной Бардийер. В исследовании анализируются

аффективный, когнитивный и конативный компоненты толерантности, а также особенности их проявления в межличностных отношениях. Кроме того, психологически обосновывается роль стереотипов, эмоционального принятия и социального взаимодействия в формировании толерантности.

Ключевые слова: толерантность, стереотипы, когнитивный, конативный, аффективный, трёхкомпонентная модель.

KIRISH

Ma’lumki, tolerantlik insonning o‘z asliyatini ifodalash shakllarining turli-tumanligini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni bildiradi. Tolerantlik - turfa xillikdagi uyg‘unlikdir. Insonning bu xislati shaxsning insonparvar tabiatidan darak beradi va atrofdagilarga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, tolerantlik bir-biridan farq qiladigan dunyoqarash, turlicha qadriyatlar tizimi va turfa fe’l-atvor stereotiplariga ega insonlar o‘rtasida insonparvar munosabatlarga erishishga shaylikdir. Biroq kuzatuvlarning ko‘rsatishicha, inson yaqinlari, qarindosh-urug‘lari va tanish-bilishlari bilan bo‘lgan munosabatlarida tolerant bo‘lishi mumkin, lekin boshqa din yoki millat vakillariga nisbatan murosasizlikni namoyon qilishi ham mumkin.

Odatda, shaxslararo tolerantlik, ijtimoiy tolerantlik, millatlararo tolerantlik va dinlararo tolerantlik ajratiladi. Shaxslararo tolerantlik aniq bir insonga nisbatan munosabatda namoyon bo‘ladi, ijtimoiy tolerantlik muayyan guruhga (masalan, nogironlarga), millatlararo tolerantlik boshqa millat vakillariga, dinlararo tolerantlik esa boshqa dinga e’tiqod qiluvchilarga nisbatan munosabatda ifodalanadi.

Tolerantlikning namoyon bo‘lishi inson huquqlarini hurmat qilish bilan hamohang bo‘lib, ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan murosa qilishni anglatmaydi, o‘z g‘oyalaridan voz kechib, boshqalarning g‘oyalariga yon bosishni bildirmaydi. Tolerantlik o‘z manfaatlarini cheklashdan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Aksincha, bu tushuncha, bir tomondan, insonning o‘z shaxsiy pozitsiyasini ifodalash qobiliyatini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, boshqa odamlarning nuqtai nazari va qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni taqozo etadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Tolerantlik har bir insonning o‘z maslaklariga amal qilishi va boshqalarda ham bunday huquq mavjudligini tan olishdir. Darhaqiqat, insonlar tabiatan tashqi ko‘rinishi, maqomi, fe’l-atvori va qadriyatlari bilan bir-biridan farq qiladilar hamda shu farqlarga qaramay yaxlit dunyoda yashash va o‘z individualligini saqlab qolish huquqiga egadirlar. Fikrimizcha, tolerant inson - o‘zligini anglaydigan va o‘zgalarni tushunadigan insondir. Demak, farq qilish huquqini tan olish tolerantlikning asosini tashkil etadi.

Shuningdek, tolerantlik bir insonning qarashlarini boshqalarga tiqishtirish sifatida tushunilmasligi kerak. Tolerantlik insonni u qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish, siz qo‘shilmasangiz ham boshqa millat va din vakillarining an’analari, qadriyatlari va madaniyatini tushunish hamda qabul qilishda o‘z ifodasini topadi.

Yuqoridagi ilmiy mulohazalarimiz asnosida tolerantlik muammosini millatlararo munosabatlar nuqtai nazaridan o‘rgangan akademik Valeriy Tishkovning tolerantlik haqidagi fikrlari bilan xulosalash mumkin. Jumladan, u shunday yozadi: “Tolerantlik - shaxsiy yoki ijtimoiy sifat bo‘lib, dunyo va ijtimoiy muhitning serqirra ekanligini tan olishni va, demakki, bu dunyoga qarashlarning ham turlicha bo‘lishini e’tirof etishni nazarda tutadi” [2].

Mazkur tadqiqot tolerantlik tushunchasining psixologik va ijtimoiy mohiyatini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy tahlil, qiyosiy yondashuv hamda psixologik interpretatsiya metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tolerantlikning shaxslararo, ijtimoiy, millatlararo va dinlararo shakllari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilindi.

Shuningdek, tolerantlikning affektiv, kognitiv va konativ komponentlari Galina Bardiyer hamda Valeriy Tishkovning ilmiy qarashlari asosida o‘rganilib, ularning shaxs xulq-atvoridagi namoyon bo‘lish xususiyatlari qiyosiy jihatdan yoritildi. Tadqiqotda tolerantlikning insonlararo munosabatlar va ijtimoiy hamkorlikdagi o‘rni psixologik yondashuv asosida tahlil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tolerantlik o‘z tuzilishiga ko‘ra uchta komponentdan tashkil topgan: affektiv, kognitiv va konativ. Galina Bardiyerning fikriga ko‘ra, tolerant bo‘lish uchun shaxsda ushbu komponentlarning ikkitasi mavjud bo‘lishi yetarli [1]:

- kognitiv va konativ (emosional darajada intolerantlikni saqlash);
- affektiv va konativ (kognitiv darajada intolerantlikni saqlash);
- affektiv va kognitiv (konativ darajada intolerantlikni saqlash).

Misol uchun, birinchi model bo‘yicha boshqa odamni emosional qabul qilmaslik mumkin, ammo uni tushunish va u bilan hamkorlik qilish ham mumkin (etnik, diniy, madaniy tolerantlik).

Ikkinchi model bo‘yicha boshqa odamni emosional qabul qilish mumkin, u bilan hamkorlik qilish va unga yordam berish mumkin, ammo bunda uni tushunmaslik mumkin (gender, boshqaruv, avlodlararo tolerantlik).

Uchinchi model bo‘yicha boshqa odamni emosional qabul qilish va tushunish mumkin, ammo u bilan xushmuomalalik bilan hamkorlik qilishdan saqlanish mumkin (kasbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik tolerantlik).

1-jadval.

Tolerantlikning uch komponentli kompleks modeli*

Tolerantlikning strukturaviy komponentlari	**Model 1**	**Model 2**	**Model 3**
Emosional qabul qilish (affektiv komponent)	-Bu inson menga yoqimsiz	+ bu inson menga yoqimli	+bu inson menga yoqimli
Tushunish (kognitiv komponent)	+men uni tushunaman	-men uni tushunmayman	+men uni tushunaman
Hamkorlik (konativ komponent)	+u bilan hamkor qilish yo‘llarini izlashga tayyorman	+biroq, men u bilan hamkorlik qilishga tayyorman va hamkorlik qilaman	-u bilan hamkorlik qilishdan o‘zimni tiyaman

**Muallif: G. Bardiyer*

Analogik tarzda xuddi shu komponentlar asosida intolerantlikni ko‘rib chiqishimiz mumkin, unda ikkita minus yetakchilik qiladi (2-jadval). Shu bilan birga mazkur modelda mavjud resurs (bitta plyus)dan profilaktik va korreksion ishlar doirasida tolerantlik ustanovkalarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin bo‘ladi.

2-jadval.

Intolerantlikning uch komponentli kompleks modeli

Tolerantlikning strukturaviy komponentlari	**Model 1**	**Model 2**	**Model 3**
Emosional qabul qilish (affektiv komponent)	-Bu inson menga yoqimsiz	-bu inson menga yoqimsiz	+bu inson menga yoqimli
Tushunish (kognitiv komponent)	+men uni tushunaman	-men uni tushunmayman	-men uni tushunmayman
Hamkorlik (konativ komponent)	-u bilan hamkorlik qilishdan o‘zimni tiyaman	+biroq, men u bilan hamkorlik qilishga tayyorman	-u bilan hamkorlik qilishdan o‘zimni tiyaman

**Muallif: G. Bardiyer*

XULOSA

Yuqoridagi jadvallardan ko‘rinib turibdiki, tolerantlikdan intolerantlikka yoki intolerantlikdan tolerantlikka o‘tish mos ravishda vaziyatga bog‘liq. Shu o‘rinda mazkur tadqiqotdagi mulohalarimizni kengroq yoritadigan bo‘lsak, izlanishlarimizning asosida affektiv jabhada tolerant ustanovkalarning an’anaviy tushunchalarini - simpatiya/antipatiya, kognitiv jabhada - divergent/konvergent, konativ jabhada - kooperatsiya/konfrontatsiyalarni faoliyat uslubi sifatida ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бардиер Г. Научные основы социальной психологии толерантности. Учебное пособие. - Спб, Изд-во “МИРС”, 2007. - 100 с.

2. Тишков В.А. О феномене этничности // Этнографическое обозрение. - № 3. - 1997. - С.18

3. Геворкян. Т. В. Семья как фактор развитие ценностных ориентаций подростков: Автореф. дисс. канд. пед.наук. Оренбург, 2010. – 21 с.

4. Днепрова Т. П. Преодоление консервативно-либерального противостояния в отечественном образовании на основе национальной толерантности: дис. ... д-ра пед. наук. Тюмень, 2011. – 435 с.

5. Енгулатова Д. И. «Повышение социально-духовного потенциала учащейся молодежи Узбекистана в условиях независимости» Дисс.канд. философ. наук. Т.: 1999 – С. 12.

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA